

XALQARO TERRORIZM: XALQARO JINOYAT SIFATIDA HUQUQIY JAVOBGARLIK VA GLOBAL HAMKORLIK

Qambarov Diyorbek

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti,

Jinoiy Odil Sudlov fakulteti 1-kurs A-potok 1-guruh talabasi.

kambarovdiyor@gmail.com

ORCID: 0009-0004-3115-7008

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14226114>

Annotation. Ushbu maqola xalqaro terrorizmni global xavfsizlik uchun tahdid sifatida ko'rib chiqadi va unga qarshi kurashish uchun global hamkorlikning zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot terrorizmni zo'ravonlik va qo'rquv orqali siyosiy o'zgarishlarga erishishga qaratilgan jinoyat sifatida tasniflaydi. Tadqiqotda BMT va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlar va qarorlar, terrorizmga qarshi xalqaro hamkorlik choralar, shuningdek, axborot almashinuvi va iqtisodiy choralar orqali milliy xavfsizlik manfaatlariiga tahdidlarni kamaytirish yo'llari o'rganiladi. Natijalar mintaqaviy hamkorlikning samaraliroq ekanligini ko'rsatib, davlatlararo axborot almashish tizimini yaxshilash zarurligini isbotlaydi. Undan tashqari, muhokama xalqaro qonunchilik mexanizmlarini zamonaviylashtirish va terrorizmga qarshi yangi texnologiyalarni qo'llash zaruratini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: xalqaro terrorizm, terrorizmga qarshi kurash, xalqaro hamkorlik, global xavfsizlik, xavfsizlik siyosati, integratsiya, tahdidlar, chora-tadbirlar.

INTERNATIONAL TERRORISM: LEGAL RESPONSIBILITY AND GLOBAL COOPERATION AS AN INTERNATIONAL CRIME

Abstract. This article examines international terrorism as a threat to global security and emphasizes the need for global cooperation to combat it. The study defines terrorism as a crime aimed at achieving political change through violence and fear. It explores documents and resolutions adopted by international organizations such as the UN and the European Union, measures for international cooperation against terrorism, and ways to reduce threats to national security through information sharing and economic measures. The findings demonstrate the effectiveness of regional cooperation and highlight the necessity of improving interstate information exchange systems. Furthermore, the discussion stresses the need to modernize international legal mechanisms and apply new technologies in the fight against terrorism.

Keywords: international terrorism, counter-terrorism, international cooperation, global security, security policy, integration, threats, measures.

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ТЕРРОРИЗМ: ЮРИДИЧЕСКАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ И ГЛОБАЛЬНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО КАК МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРЕСТУПЛЕНИЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается международный терроризм как угроза глобальной безопасности и подчеркивается необходимость глобального сотрудничества для борьбы с ним. Исследование определяет терроризм как преступление, направленное на достижение политических изменений с использованием насилия и страха. Анализируются документы и резолюции, принятые международными организациями, такими как ООН и Европейский Союз, меры международного сотрудничества в борьбе с терроризмом, а также способы снижения угроз национальной безопасности через обмен

информацией и экономические меры. Результаты показывают, что региональное сотрудничество является более эффективным, и подтверждают необходимость улучшения системы обмена информацией между государствами. Кроме того, обсуждение подчеркивает важность модернизации международных правовых механизмов и применения новых технологий в борьбе с терроризмом.

Ключевые слова: международный терроризм, борьба с терроризмом, международное сотрудничество, глобальная безопасность, политика безопасности, интеграция, угрозы, меры.

I. Kirish

A. Mavzuning Muhimligi

Xalqaro terrorizm butun dunyoni tashvishga solayotgan global muammo bo‘lib, unga qarshi kurashish tabiiyki davlatlar va xalqaro tashkilotlardan global miqyosdagi hamkorlikni talab qiladi. Bruce Hoffmanning ta’kidlashicha, "Terrorism – bu qo‘rqtish va siyosiy o‘zgarishlarga erishish uchun zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlik tahdidi orqali qo‘rquv yaratish va undan foydalanishdir" (Hoffman, 2017). Bu ta’rif terrorizmning asosiy maqsadini aniq ifodalaydi va uning ijtimoiy-siyosiy mazmunini ochib beradi. Terrorchilar, odatda, davlatlar va xalqlarning tinchligiga rahna solish maqsadida qo‘rquv yaratish orqali o‘zlarining maqsadlariga erishishni ko‘zlashadi. Bunday tahdidlar global tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka zarar yetkazmoqda, natijada dunyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar terrorizmga qarshi birgalikda kurashishga majbur bo‘lmoqda.

B. Xalqaro Hujjatlar

Buni ta’minalash uchun xalqaro tashkilotlar, davlatlar miqyosida turli konvensiya va xalqaro kelishuvlar imzolangan bo‘lib, bular xalqaro terrorizmga nisbatan qo‘llaniladigan javobgarlik va global hamkorlikning asoslari hisoblanadi. Birlashgan millatlar tashkilotining asosiy vazifasi dunyo bo‘ylab tinchlik va osiyishtalikni ta’minalash ekanligini uning asosiy nizomida belgilab qo‘yilgan (United Nations, 1948). Shu sababli u tomonidan qabul qilingan xalqaro shartnomalar, undan tashqari davlatlar imzolangan kelishuvlarni biz bunday hujjatlar qatorida keltirishimiz mumkin. Biroq, shu va boshqa kelishuvlar amalga oshirilganligiga qaramay, terroristik xurujlar dunyo miqyosida sodir bo‘lishda davom etmoqda. Ushbu holat xalqaro terrorizmga qarshi kurashning dolzarbligini va bu yo‘nalishda global miqyosda yanada kengroq hamkorlik zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda xalqaro terrorizm xalqaro jinoyat sifatida ko‘rib chiqilib, unga qarshi global miqyosdagi hamkorlikning o‘ta muhimligi va uni mustahkamlash yo‘llari muhokama qilinadi.

II. Uslubiyat:

A. Yondashuvlar

Ushbu maqola xalqaro terrozinmi jinoyat sifatida ko‘rib chiqishda normativ-huquqiy va analatik tahliliy yondashuvlardan foydalanadi. Tadqiqot davomida BMTning terrozinma qarshi kurashish bo‘yicha konvensiyalari, Yevropa ittifoqi va boshqa mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qarorlari, shuningdek xalqaro miqyosdagi tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan statistikalar tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv terrorizmga qarshi kurashda qabul qilingan chora-tadbirlar va ularning milliy qonunchilikka ta’sirini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Shuningdek, jinoyatni oldini olish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi huquqiy vositalarning ahamiyati yoritiladi.

B. Ma'lumot Manbalari

Ma'lumot manbalari sifatida BMT konvensiyalari, mintaqaviy shartnomalar, milliy qonunchilik tizimlari, ilmiy kitob, tahliliy hisobotlar va tadqiqotlardan foydalaniadi. Asosan 2001-yildan keyingi xalqaro terrorizmga qarshi qabul qilingan chora-tadbirlar qamrab olinib, qiyosiy va statistik tahlil usullari orqali davlatlararo hamkorlikning samaradorligi baholanadi.

Shuningdek, xalqaro qonunchilikdagi javobgarlik choralarining kuchayish sabablari ham o'rganiladi. Bu yondashuv tadqiqotga chuqurroq bilim va ko'rsatkichlar kiritishga xizmat qiladi.

C. Cheklar

Mazkur tadqiqotda ba'zi davatlarda terrorizmga oid ma'lumotlarni olish bo'yicha mavjud cheklar tufayli tadqiqot natijalarini talqin etishda ehtiyyotkorlik talab etiladi. Shu bilan birga, turli davlatlar tomonidan terrorizmning aniqlanishi va unga yondashuvdagi farqlar ham natjalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu cheklar tadqiqotning qamrovini toraytirishi mumkin bo'lsada, ma'lumotlarning to'liq va adolatli yoritilishi uchun qo'shimcha manbalar va tadqiqotlar o'rganilgan.

III. Natijalar

A. Xalqaro Tashkilotlar

Mazkur tadqiqot terrozmiga qarshi kurashish dolzarb masala ekanligini takidlaydi. BMT Terroristik portlashlarni yo'q qilish bo'yicha xalqaro konvensiya asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar xalqaro hamkorlikni kuchaytirishda muhim rol o'ynagan (United Nations, 1996).

Jumladan, BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-sonli Rezolyutsiyasi terrorizmga qarshi iqtisodiy va moliyaviy choralarga e'tibor qaratib, davlatlarga terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashda qat'iy chora-tadbirlarni qo'llashni tavsya qildi (Security Council Resolution 1373, 2001). Ammo BMT matbuot bo'limi xulosasiga ko'ra davlatlar o'rtaсидаги hamkorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi tufayli hanuzgacha terrorizm aktlari uchrab turibdi (United Nations press, 2018). Bu ushbu rezolyutsiya ijrosi to'liq amalga oshmayotganligidan dalolatdir.

B. Statistik Ma'lumotlar

Bundan tashqari, Global Terrorism Index ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda terrorizm oqibatida dunyo bo'ylab iqtisodiy zarar 52 milliard AQSh dollarini tashkil etgan, bu esa xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Interpol va boshqa xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda terrorizmga qarshi choralarda axborot almashinuvi va transmilliy hamkorlikning samaradorligi oshgan. Biroq, aksariyat davlatlar o'rtaсидада hamon milliy manfaatlar ustuvor bo'lib qolayotgani xalqaro huquqiy mexanizmlar samaradorligini cheklab kelmoqda (Interpol, 2023). Shu sababli, xalqaro terrorizmga qarshi huquqiy mexanizmlar doimiy ravishda yangilanib, zamon talablariga javob beradigan shaklda rivojlantirilishi kerak.

Quyidagi jadvalda 2011-2022-yillarda terrorizmga ta'sir qilgan top 10 mamlakatlar ko'rsatib o'tilgan (Institute for Economics & Peace, 2023). Ko'rib turibmizki bu mamlakatlar asosan Osiyo va Afrika mamlakatlari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Country	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Afghanistan	3	3	3	4	3	3	2	3	1	1	1	1
Burkina Faso	113	113	111	108	102	90	21	15	9	6	4	2
Somalia	6	2	2	7	8	5	3	3	3	3	3	3
Mali	41	23	19	21	16	13	10	9	8	7	7	4
Syria	20	4	4	5	6	7	7	6	6	5	6	5
Pakistan	2	2	2	2	4	4	5	5	5	8	10	9
Iraq	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	7
Nigeria	8	5	5	3	2	2	4	4	4	4	6	8
Myanmar	17	21	24	29	39	42	40	42	23	24	9	9
Niger	49	57	44	34	20	19	18	19	14	12	8	10

Source: Dragonfly TerrorismTracker, IEP calculations

IV. Muhokama

A. Milliy Xavfsizlik Manfaatlari

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda global hamkorlik sezilarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, hali ham bir qator muammolar mavjud. Eng asosiy muammo davlatlar o'rtasida axborot almashish tizimining mukammal emasligidir. BMT va Interpol tomonidan terrorizmga qarshi kurashni samarali tashkil etish uchun turli platformalar va mexanizmlar joriy etilganiga qaramay, milliy xavfsizlik manfaatlari davlatlarni axborotni to'liq almashishdan tiyilishga majbur qilmoqda. Bu esa terrorizmga qarshi samarali kurashda katta to'siq hisoblanadi. Masalan, ayrim davlatlar terrorchilik faoliyati bilan bog'liq axborotlarni o'zaro ulashish masalasiga shubha bilan qaraydi, bu esa yirik terrorchilik hujumlarining oldini olishda global tizimning zaifligini ko'rsatadi.

B. Terrorizmni Moliyalashtirish va Rezolutsiyalar Ijrosi

Ikkinchidan, BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-sonli Rezolyutsiyasi terrorizmni moliyalashtirishni to'xtatish uchun qator chora-tadbirlar ishlab chiqishni tavsiya qilgan bo'lsa-da, uning ijrosi barcha davlatlarda bir xilda bajarilmayotgani kuzatilmoqda. Ayrim davlatlarda bu rezolyutsianing amaliyatga tabbiqi sust kechmoqda, natijada terroristik tashkilotlarning moliyaviy manbalari to'liq nazorat qilinmay qolmoqda. Global Terrorism Index ma'lumotlari ham iqtisodiy zarar darajasining yuqoriligini tasdiqlagani, bu borada qo'shimcha sa'y-harakatlar zarurligining isbotidir. Shu sababli, terrorizmga qarshi kurashda iqtisodiy choralarining yanada qat'iyroq joriy etilishi va davlatlar o'rtasidagi moliyaviy ma'lumot almashinuvni mexanizmlarining mustahkamlanishi talab etiladi.

C. Mintaqaviy Hamkorlik Samaraliroq

Uchinchidan, terrorizmga qarshi kurashda mintaqaviy hamkorlik global hamkorlikka nisbatan samaraliroq natija bermoqda. Buni biz BMT matbuot markazi tomonidan berilgan xulosalarda ko'rshimiz mumkin.

Mintaqalardagi kuchli hamkorlik va doimiy axborot almashish mexanizmlarining mavjudligi terrorizmga qarshi kurashda sezilarli natijalarga erishishga yordam bermoqda.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar Global miqyosda bu tajribani o‘rganib, yanada kuchli va integratsiyalangan mexanizmlarni ishlab chiqishi lozim.

Mintaqaviy hamkorlikning yuqori samaradorligi xalqaro terrorizmga qarshi kuchliroq va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan global hamkorlik tizimlarini yaratish zaruratini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalqaro terrorizmga qarshi kurashishda mavjud xalqaro huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur. Xususan, davlatlararo axborot almashish tizimini rivojlantirish, shuningdek, BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalarining bajarilishi ustidan nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Buni amalga oshirish nafaqat BMTning balki Xavfsizlik Kengashi a’zolarining ham zimmasida bo‘lishi kerak.

Mintaqaviy hamkorlik tajribasini global miqyosga ko‘chirish va uni yanada rivojlantirish katta ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot natijasida yaqqol namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kerak, chunki texnologiya rivojlangani sari jinoyatchilik ham rivojlanib boraveradi. Buni oldini olish uchun, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Terrorizm xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish va bu borada xalqaro hamjamiyatning yordamini jalb qilish ham dolzarb masala hisoblanadi. Umuman olganda terrorizmga qarshi kurashish dunyo hamjamiyati uchun doimo aktual masala bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

REFERENCES

1. Hoffman, B. (2017). *Inside Terrorism* (3th ed.). Columbia University Press. [Https://doi.org/10.7312/hoff17476-003](https://doi.org/10.7312/hoff17476-003)
2. United Nations. (1948, December 10). *Universal Declaration of Human Rights*. United Nations. <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
3. United Nations. (1996, December 17). *International Convention for the Suppression of Terrorist Bombings*. International Law Comission. https://legal.un.org/avl///pdf/ha/icstb/icstb_ph_e.pdf
4. United Nations. (2001, September 28). *Security Council Resolution 1373*. United Nations Security Council. <http://unscr.com/en/resolutions/1373>
5. United Nations press. (2018, October 4) *Cooperation, Collaboration between Countries Crucial in Combating International Terrorism, Sixth Committee Speakers Stress, Hailing 'Code of Conduct'*. Meetings Coverage and Press Releases. Retrieved November 5, 2024, from <https://press.un.org/en/2018/gal3567.doc.htm>
6. Interpol. (2023). *Annual report*. Retrieved November 6, 2024, from <https://www.interpol.int/content/download/22267/file/INTERPOL%20Annual%20Report%202023%20EN.pdf>
7. Institute for Economics & Peace. (2023). *Global Terrorism index 2023 briefing*. <https://www.economicsandpeace.org/wp-content/uploads/2023/12/GTI-2023-Briefing-web.pdf>